

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



## TAHRIRIYAT

**4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Mardonov, O. Jabborova	<b>6</b>	Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
A. Abdullayev	<b>9</b>	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
D. Maxmudova	<b>12</b>	Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
M. Musurmonova	<b>16</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
R. Musurmanov, M. Musurmonova	<b>20</b>	Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
F. Ochilov	<b>23</b>	Umumiyo'rta ta'llimmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
B. Axmadaliyev	<b>27</b>	Umumiy o'rta ta'lim mabkalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova	<b>31</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'ynlarining roli
U. Shermatova	<b>35</b>	Millat ruhini saqlash yo'lida
F. Atabekov	<b>39</b>	Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni
O. Jabborova	<b>43</b>	Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limgni rivojlanitirishning pedagogik muammolari
M. Achilova	<b>46</b>	Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
D. Po'latova	<b>50</b>	Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
Z. Umarova	<b>54</b>	Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Abdullayeva	<b>57</b>	Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi
G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov	<b>61</b>	Uchinchi tartibli tenglamalar
X. Gulyamova	<b>65</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
R. Nosirova	<b>69</b>	Maktabgacha ta'limga metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni mакtabga tayyorlash



## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Mutalova	<b>73</b>	Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
L. Bolievа	<b>76</b>	Oliy ta'limga "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

---

**Xolida GULYAMOVA,**  
Chirchiq davlat pedagogika instituti  
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasи katta o‘qituvchisi

## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QISH METODIKASI

### Annotation

Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida adabiy ta’limning boshlang‘ich bosqichi hisoblanib, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiyot o‘qitish metodikasi, ona tili o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq bilan bog‘liq holda fan sifatida shakllanishining ilmiy-metodik xususiyatlari yuzasidan so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Adabiy ta’lim, metodika, integratsiya, badiiy-estetik tafakkur qonuniyatları, pedagogika, psixologiya, nutq, badiiy matn, ta’lim bosqichlari, san’at hodisasi, didaktika, uzyilik va uzuksizlik.

Данная статья посвящена научно-методическим свойствам формирования методики чтения в начальных классах в качестве науки в связи с литературоведением, языковедением, методикой преподавания литературы, методикой преподавания родного языка, педагогикой, психологией, философией, логикой, считаясь начальным этапом литературного образования в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова.** Литературное образование, методика, интеграция, закономерности художественно-эстетического мышления, педагогика, психология, речь, художественный текст, этапы образования, событие искусства, дидактика, органичность и непрерывность.

This article is devoted to the scientific and methodological features of the formation of methodology of reading in elementary classes as a science in connection with literary studies, linguistics, methodology of teaching literature, methodology of teaching native language, pedagogy, psychology, philosophy, logic, being considered the initial stage of literary education in general education schools.

**Key words.** literary education, methodology, integration, patterns of artistic and aesthetic thinking, pedagogy, psychology, speech, literary text, stages of education, art event, didactics, organicity and continuity.

**H**ozirgi kunga qadar boshlang‘ich sinflarda adabiy ta’lim ona tili o‘qitish metodikasining tarkibida o‘rganib kelinmoqda. Holbuki o‘rtta umumiy ta’lim tizimida adabiyot o‘qitish metodikasi mustaqil fan sifatida o‘z statusiga ega bo‘lgani sababli boshlang‘ich ta’limda ham adabiy ta’limning dastlabki bosqichi – o‘qish metodikasiga mustaqil fan sifatida qarash lozimligi soha mutaxassislarining chiqishlarida qayta-qayta tilga olinmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi adabiyot o‘qitish sistematik kursiga tay-yorlovchi predmet sifatida bolalar adabiyoti namunalari asosida o‘z maqsad va vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinfda o‘qish darslarining o‘rganish obyektini o‘quvchilarning adabiy ta’limni egallash jarayoni deb belgilanishi

maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lif o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- 1) adabiy-badiiy asarlar tahlili vositasida shaxs tarbiyasi;
- 2) boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o'qitish;
- 3) shaxsnинг o'z-o'zini rivojlantirishini shakllantirish jarayoni.

V.V.Golubkov tomonidan ishlab chiqilgan "nima uchun o'rgatish kerak?" (badiiy asarni o'rgatish maqsadi), "nimani o'rgatish kerak?" (adabiy ta'lifning mazmuni), "qanday o'rgatish kerak?" (talabalarning – bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish maqsadi, mazmuni, mos metod va usullari, vositalar), "nima uchun shunday o'qitish kerak, boshqacha emas?" (tanlangan metodikaning ilmiy asoslanganligi) adabiy ta'lif metodologiyasiga asoslanilgan.

Hozirgi kungacha boshlang'ich ta'lif metodikasida bu masalaga o'quvchi nuqtai nazaridan qaralmoqda. Unga ko'ra o'quvchi tomonidan tan olingen o'quv maqsadi sifatida quyidagilar belgilangan:

- 1) "nimani o'rganyapman?" (adabiy ta'lifning o'quvchi shaxsi tomonidan qabul qilingan mazmuni);
- 2) "qanday o'qiyanman?" (o'qish ta'lifi jarayonida o'quvchi o'zlashtirishning qaysi usullaridan foydalanishi);
- 3) "nega men shu usulda o'rganyapman, boshqa usulda emas?" (o'rganayotgan usullaridan qaysi birining samarali ekanini anglashi)

Boshlang'ich sinflarda o'qish ta'lifi metodologiyasining fan sifatida rivojlanishida bir paradigmaning boshqasi bilan bog'liqligiga asoslanib o'qitish ko'zga tashlanadi. Bunda "nima uchun o'qituvchi dars beradi?", "nima uchun bola o'qiydi?" savollariga javoblar mos tushadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qish darslarida o'zidagi ta'lifi bo'shlidlarni to'ldirish, so'z san'atini o'zlashtirish maqsadlarini o'z oldiga qo'ya olmaydi. O'qituvchi shu jarayonda o'quvchilarni adabiy ta'lifning boshlang'ich bosqichi – o'qish ta'lifidan ko'zlangan maqsad sari yo'naltiradi. Siz nima o'qiyapsiz? O'ylang, nima uchun bu asarni o'qiyapmiz? Bu asarni hozirgi o'qish va tahlil qilish usulimiz bilan yaxshi o'zlashtira oldingizmi?

Keyinchalik o'quvchi o'qish ta'lifi davomida kitobxonlik shartlari, sabab, maqsad va vazifalarini bilishi kerakligini, yaxshi kitob kitobxonda turli xil kechinmalarni (shodlanish, qayg'urish, tashvishlanish) yuzaga keltirishini, fikrlashga undashini, o'z nuqtayi nazarini tanlash imkonini berishini bilib boradi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish metodikasi bo'yicha aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko'rsatmalarga muhtoj. Metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'lif mazmuni va uni o'qitishga mustaqil, ongli yondasha oladigan, o'zgalarning tajribasini nafaqat o'rganish, balki ular faoliyatining natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishlarini ta'minlashga qaratilishi kerak deb o'ylaymiz.

Fikrimizcha, boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasining asosi sifatida quyidagi didaktik qonuniyatlarni keltirish mumkin:

1. Ta'lif o'quvchilarning anglashlariga har tomonlama ta'sir etuvchi xarakterda bo'lishi.
2. O'quvchilar oldilariga qo'yilgan masalani aniq tushunishlari.
3. O'qituvchi yangi murakkab ta'lifi muammolarni tanish hodisalar holatida ko'rsata olish mahoratiga ega bo'lishi. Adabiy ta'lif jarayonida deduksiyani induksiya

---

bilan bog'lay bilishi.

Boshlang'ich ta'lif tarixida ayni muammoga jonli jarayon sifatida qaraladi.

Hozirgi adabiy ta'lif maktab oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodni asrlar mobaynida insoniyat tarixi davomida yaratilgan va to'ldirib, boyitib kelingan madaniy boyliklarni egallash, real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashlariga erishish, atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o'rgatish, intellektual salohiyatli kishilar qilib tarbiyalash talabini qo'yamoqda. Bunga erishish uchun o'quvchilarning ta'limi imkoniyatlарини hisobga olgan holda adabiy ta'lifning har bir bosqichida o'qitish metodlari, maqsad va vazifalarini aniq-ravshan belgilab olish lozim.

O'qish ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'qish va matnni tushunish sifati darajasini o'rghanish nazarda tutiladi. Xalqaro PIRLS nazorati bo'yicha boshlang'ich maktabning 4-sinfini tugatgan o'quvchilarning o'qish ta'limi davomida olgan bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

O'qish va matnni tushunish sifati asarni qayta-qayta o'qish hisobiga yaxshilanmaydi, o'qilgan asarning mohiyatini anglashga xizmat qilmaydi.

Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan. Mazkur mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar ta'limi, axloqiy xarakterda bo'lib, ular o'quvchilarning aqliy kamoloti va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. Uning o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha bilim va tarbiya berishni ta'minlaydi. Ularning ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinushi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

"O'qish kitobi" darsliklaridagi materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatdan ham, mazmun jihatdan ham kengaya borishi hisobga olinadi. Har bir mavzu uchun tanlangan materialning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

"Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, bunyodkorlik ishlari, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlari, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishslash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishlari tashkil qilinadi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishslashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilar bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. Umuman, "O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berish bilan birga, ularning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga yordam berishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan. O'quvchilarning darslik yordamida o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va ma-

lakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlari nazarda tutilgan.

O'qish darslarida quyidagi didaktik vazifalar alohida inobatga olinadi:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxonidan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlарини kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk kishilar qilib va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning hayolot olamini boyitish<sup>1</sup>.

Qayd etilgan fikr-mulohazalar boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiyot nazariyasi va tarixi, adabiyot o'qitish metodikasi, ona tili o'qitish metodikasi, psixologiya, pedagogika, didaktika kabi talay fanlarga oid bilim va tushunchalarni taqozo etadi. Lekin u mazkur fanlardagi tayyor bilim va tushunchalarni ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki o'z oldidagi maqsad va vazifalar mohiyatidan kelib chiqqan holda interpretatsiya qilish yo'lidan beradi. Jumladan, badiiy asarning alohida san'at hodisasi sifatidagi g'oyaviy-badiiy mazmuni falsafiy-psixologik qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqligi boshlang'ich sind o'quvchilarining kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimida nutq va tafakkur uyg'unligiga erishish, matn ustida ishlash orqali badiiy asar tuzilishiga doir bilimlar bilan qurollantirish va nihoyat o'qish metodikada adabiy ta'limga uzviyiligi va uzlusizligi yuzasidan yaxlit tasavvur hosil qilishga olib keladi. Shuning uchun ham bolalar adabiyoti namunalaring g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahliliga oid adabiy ta'limga o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning adabiy-estetik va ruhiy jihatdan hissiy ta'sirchanligini aniqlash hamda tarbiyaviy ahamiyatini belgilashda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, didaktika, mantiq fanlari qonuniyatlariga suyanadi.

Shunga ko'ra, badiiy asarning san'at hodisasi sifatidagi xos xususiyatlarini chuqr tushunish, mavjud adabiy bilim va tushunchalarni rejadagi asarlar tahliliga tadbiq etish o'qish darslarining sifat va samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich sind o'qituvchisidan metodika fani tarixi va taraqqiyotidan xabardorlik, turdosh fanlarning adabiy ta'limga aloqador qonuniyatlarini o'qish metodikasi bilan bog'lash va keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova va K. b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir. 2009.
2. Воюшина М.П., СКислинская.А., Лебедева е.В.. Методика обучения литературе в начальной школе. –М.: -Академия. – 2010.
3. Matchonov S. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. Til va adabiyot ta'limi. 7- son, 2020.
4. Matchonov S. va b. 4-sinflarda o'qish darslari. –T.: Yangi yo'l poligraf servis. 2007.
5. Mamatova G. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida adabiy-nazariy tushunchalar ustida ishlash. Ped. fan. fal. dok. –T., 2020.

1 K. Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir. 2009.